

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov</b><br>Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni .....                 | 9   |
| <b>B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova</b><br>Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli ..... | 16  |
| <b>N.M.O'rinova</b><br>Xorijiy ta'limda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari .....   | 20  |
| <b>B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov</b><br>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish .....  | 24  |
| <b>B.A.Umarov</b><br>Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari .....  | 28  |
| <b>I.M.Saidov</b><br>Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili .....  | 33  |
| <b>M.I.Alimjonova</b><br>Ta'limning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....                                     | 37  |
| <b>I.I.Yo'lbarsova</b><br>Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....  | 45  |
| <b>M.I.Alimjonova</b><br>Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....  | 49  |
| <b>F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev</b><br>Mafkuraviy immunitet va uning zarurati .....  | 56  |
| <b>Z.J.Pardaeva</b><br>Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....   | 60  |
| <b>F.A.Ibroximov</b><br>Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....  | 70  |
| <b>L.D.Tuganova</b><br>Gender va ta'limda tenglik muammosi.....  | 75  |
| <b>Sh.X.Tog'aeV</b><br>Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari .....  | 78  |
| <b>A.R.Saydullayeva</b><br>Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari .....   | 83  |
| <b>G.S.Raxmonova</b><br>Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....  | 87  |
| <b>M.R.Usmanov</b><br>O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....   | 93  |
| <b>X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova</b><br>Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari .....   | 97  |
| <b>E.S.Yuldashyev</b><br>Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....  | 101 |
| <b>G.B.Karimova</b><br>Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish ....  | 107 |
| <b>F.O'.Toshboltayev</b><br>Zamonaviy ta'limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash .....   | 111 |
| <b>S.D.Akzamov</b><br>Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri .....  | 115 |

**TALABALARNI MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL**

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНО-  
КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ**

**A PEDAGOGICAL MODEL OF DEVELOPING STUDENTS' INTERCULTURAL  
COMMUNICATION COMPETENCE**

**Alimjonova Mexriniso Ibroximjonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Alimjonova Mexriniso Ibroximjonovna

– Farg'ona davlat universitetimustaqil tadqiqotchisi

**Annotasiya**

*Mazkur maqolada Ta'limning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni, talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lganligi bois ularda mazkur kompetentlikka aloqador bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье в условиях глобализации образования педагогическое содержание развития межкультурной коммуникативной компетенции у студентов, развитие межкультурной коммуникативной компетенции у студентов является актуальной задачей, а также высказываются мнения по совершенствованию их знаний и умений, связанные с этой компетенцией.*

**Abstract**

*In this article, in the conditions of the globalization of education, the pedagogical content of the development of intercultural communication competence in students, the development of intercultural communication competence in students is an urgent task, and the opinions are expressed to improve their knowledge and skills related to this competence.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik-psixologik, globallashuv sharoit, madaniyatlararo munosabatlar, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.*

**Ключевые слова:** *педагогико-психологические, условия глобализации, межкультурные отношения, социальная необходимость, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, образование и воспитание, научно-методические.*

**Key words:** *pedagogical-psychological, globalization conditions, intercultural relations, social necessity, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and upbringing, scientific-methodical.*

**KIRISH**

Bugungi kunda madaniyatlararo muloqot qiyinlashib borishi sharoitida yoshlarda bu kompetentlikni rivojlantirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda yangi avlod standartlarini yaratishning davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan oliy ta'lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, oliy ta'lim muassasalarining maqsadini bo'lajak mutaxassislarining bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta'lim tizimida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati talabalarining ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar talabaniing amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda talabalarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqeelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, talaba real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgariidan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash talabaniing faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li oliy pedagogik ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, oliy ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi oliy pedagogik ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur

anglab yetilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'limga doir muammolarni tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri universalhisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv talabidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik»tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayangan holda, dastlab ko'pgina holatda sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladigan «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan talablar bilan bog'liqlikda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta'lim mazmuni va metodlarini o'zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko'rib chiqilgan. Ana shu nuqtai nazardan ko'plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o'zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui, kompetentlik esa, ma'lum sohaga doir biron-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan.[1:160]

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) –subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.[2]Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, «kompetensiya» tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan.

Oliy ta'limga xos kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan obyektlariga munosabatini taqozo etuvchi talabning semantik (ma'no-mazmun) yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir.

Demak, oliy ta'limga xos kompetensiyalar oliy ta'limda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oliy ta'limdotalaba eng asosiy – fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va kasbiy faoliyat jarayonida mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, universal kompetensiyalarning qat'iy belgilangan tartibi mavjud emas va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki kompetensiya jamiyatning o'z fuqarolarini tayyorlashga qo'yayotgan ijtimoiy buyurtmasidir. Ana shu sababli oliy ta'limga xos kompetensiyalar ham davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining asosiy tamoyillariga muvofiq belgilanishi zarur. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hamda Shveysariya va AQSHning ta'lim statistikasi Milliy institutlari tomonidan amalga oshirilgan «Universal kompetensiyalarni aniqlash va tanlash» xalqaro loyihasi doirasida ham qat'iy o'rnatilgan tartibdagi universal kompetensiyalar ishlab chiqilmagan.

Yevropa Ittifoqining «Yevropa uchun universal kompetensiyalar» mavzusidagi simpoziumida quyidagi universal kompetensiyalar tavsiya etilgan:

bilishga doir: tajribadan foydalana olish; o'z bilimlari orasidagi o'zaroaloqadorlikni tashkil etish va ularni tartibga solish; o'qib-o'rganishga doir o'zining shaxsiy usullaridan foydalanish; muammoni hal etish; ta'lim olish bilan mustaqil shug'ullanish;

izlanishga doir: turli ma'lumotlar ba'zasiga murojaat qilish; yon-atrofdagilardan surishtirish; ekspert bilan maslahatlashish; axborot olish; hujjatlar bilan ishlay olish va ularni tasniflash;

fikrlashga doir: o'tmish va zamonaviy voqelikning o'zaro aloqadorligiga asoslanish; jamiyatning u yoki bu jihatlari tanqidiy munosabat bildirish; ishonchsizlik va murakkablikka qarama-qarshi turish; munozaralarda o'z nuqtai nazarida turish va shaxsiy fikrlarini bildirish; ta'lim olish va ishlash uchun siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitning muhimligini ko'rish; salomatlik, iste'molchilik va atrof-muhit bilan bog'liqlikda ijtimoiy odatlarni baholash; san'at va badiiy asarlarni baholash;

## PEDAGOGIKA

hamkorlik: hamkorlikda va guruhlarda ishlash; qaror qabul qilish – qarama-qarshilik va nizolarni bartaraf etish; murosa qilish; shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish;

amaliyotda qo'llash: loyihaga a'zo bo'lish; ma'suliyatli o'z zimmasiga olish, guruh yoki jamoaga qo'shilish va o'z hissasini qo'shish; o'z ishini tashkil etish; hisoblashga va modellashtiruvchi jihozlardan foydalanish;

moslashuv: yangi axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish; tez o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchanlik; qiyinchiliklarni mardonovor yengib o'tish; yangi qarorlar qabul qilish.[3]

**NATIJARLAR**

Rossiya gumanitar ilmiy fondi homiyligida amalga oshirilgan «Universal kompetensiyalar – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining tarkibiy qismi sifatida» nomli loyiha doirasida esa oliy ta'lim talabalari uchun quyidagi kompetensiyalar ishlab chiqilgan:

qadriyatga yo'naltirilgan ma'no-mazmunga ega kompetensiyalar. Mazkur kompetensiyalar qadriyatli yo'nalganlik bilan bog'liq bo'lib, talabani atrof-muhitni anglash va tushunish, mo'ljalni olish, o'zining o'rni va ahamiyatini anglash, o'z xatti-harakatlari uchun maqsadga yo'naltirilgan va ma'no-mazmunga ega ustanovkalarni tanlay olish qobiliyatlarini tarkib toptirishni talab etadi;

umummadaniy kompetensiyalar. Milliy va umuminsoniy madaniyat; insoniyat va inson hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari; oila, ijtimoiy hodisa va an'analarning madaniyatshunoslikka doir asoslari; inson hayotida fan va dinning rolini anglash va faoliyat tajribasini egallash;

o'quv-bilishga doir kompetensiyalar: mantiqiy, metodologik, umumo'quv faoliyati elementlarini o'zida aks ettiruvchi mustaqil bilish sohasiga doir o'quvchi kompetensiyalari yig'indisi. Bu yerdan maqsadni belgilash, rejalashtirish, tahlil etish, refleksiya, o'z-o'zini baholash kelib chiqadi;

axborotga doir kompetensiyalar: o'quv fanlari, ta'limiy sohaga doir va atrof-olamdagi axborotlarga munosabatiga doir faoliyat ko'nikmalari. Zamonaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda zaruriy axborotlarni izlash, tahlil etish va tanlash hamda ularni qayta ishlash, saqlash va uzatish malakalarini egallash;

kommunikativ kompetensiyalar: tillarni bilish, yaqin-atrof va uzoqdagi voqeliklar va odamlar bilan o'zaro harakatda bo'lish usullari; jamoada va guruhlarda ishlash ko'nikmalari, turli ijtimoiy rollarni egallash;

ijtimoiy-mehnatga doir kompetensiyalar: fuqarolik, kuzatuvchi, saylovchi, rais, iste'molchi, sotuvchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi, oila a'zosi rollarini bajarish. Iqtisodiyot va huquqqa doir masalalar hamda o'z kasbiy yo'nalishini aniqlashga oid huquq va majburiyatlar;

shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirishga doir kompetensiyalar jismoniy, ma'naviy va intellektual o'z-o'zini rivojlantirish, emotsional o'z-o'zini boshqarish va o'zining ruhini ko'tarish usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan.[4]

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqalar) foydalana olish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

Shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiya: shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; kasbiy mavqeining o'sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlarini uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo'lish; hayot davomida o'qib-o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatarga ega bo'lish; mavjud bilimlarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tkaza olish;

ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya'ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish); o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan muammo va kelishmovchiliklarni hal etish, zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish; mafkuraviy immunitentga ega bo'lish.

Umummadaniy kompetensiya: Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish; badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish; insoniyat tomonidan e'tirof etilgan madaniy ko'nikmalarga ega bo'lish (tibbiy madaniyat, ekologik madaniyat, huquqiy madaniyat, nutq madaniyati, muomala madaniyati, musiqa madaniyati, kiyinish madaniyati, iqtisodiy madaniyat, mediya madaniyati, va hokazo); umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalarga rioya qilish;

Matematik savodxonlik, fan texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasi: axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalana olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda xisob-kitob

bilan ish yuritish; inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.[5]

Turli madaniyat vakillarining o'ziga xos milliy va etnik tafakkuri ko'pincha madaniyatlararo o'zaro munosabatlarda to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda ongning quyidagi jihatlari alohida qiziqishni yuzaga chiqaradi:

- etnosentrizmga bo'lgan moyillik – o'zga madaniyat sohibini o'z madaniyati standartlaridan kelib chiqqan holda salbiy baholash;

- o'z madaniyati va boshqa madaniyat vakillarining etnik ongidagi yuzaki obrazlarning shakllanishi, ya'ni stereotiplashishi;

- madaniyatlararo aloqalar jarayoniga yolg'on tasavvurlar, shu jumladan, o'tmishdagi salbiy tajribalarni va h.k. daxldor qilish. Mazkur hodisalar madaniyatlararo o'zaro munosabatlar jarayonining hamkorlar shaxsi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan dastlabki bosqichlarda kuchli to'siqlar sifatida ko'zga tashlandi.[6:105]

### MUHOKAMA

Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish innovasion hamkorlikka asoslangan ta'lim tizimi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. So'ngi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitilish tizimini qoniqarsiz xolatga kelishi, ta'lim sifatini ortda qolishi talabalarda ijtimoiy dunyoqarashini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, tarixni yetarlicha bilmaligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunmaslik holatlari yuzaga kela boshladi.

Mazkur tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy gumanitar fanlar hamkorligi asosida madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakl va texnologik usullarini ishlab chiqishga va mavjud yondashuvlarni takomillashtirishga alohida ehtibor qaratildi.

Ma'lumki, talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitilish ketma-ketligida tizimlilik, izchillik va bir-birini to'ldiruvchanlik tamoyillariga asoslanishi, ta'lim bir butunlikda tashkil etilishi samarali bo'ladi. Ya'ni falsafa, tarix, dinshunoslik, madaniyatshunoslik, fuqarolik jamiyati fanlari hamkorligi asosida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishgaga oid barcha tashkiliy-pedagogik ishlar bir biriga uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa va shu tadbirlarning har biri bosqichma-bosqich talabalar madaniyatlararo muloqotga yuqori darajada kirisha olishga tayyorlasagina, u bir butun tizim sifatida aniq maqsadga erishadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy ishda talabalarga fanlararo hamkorlik asosida olib borilgan dars mashg'ulotlari orqali madaniyatlararo muloqot kompetentligini hosil qilishlari bosqichma-bosqich, uzluksiz ta'minlangan holda amalga oshirilishiga e'tibor qaratildi.

Madaniyatlararo o'zaro aloqalar qatnashchilarining qadriyatlarga bo'lgan turli munosabatlari qadriyatlar tizimidagi farqlarga bog'liq bo'lib, u o'zaro muloqot samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli madaniyat vakillari tomonidan qo'llaniladigan kognitiv tuzilmalardagi farqlar o'zaro muloqot samaradorligini pasaytiruvchi asosiy to'siq hisoblanadi. Dunyoni qabul qilish modellaridagi eng katta farqlar o'zga dunyoqarash va tasavvurlar bilan to'qnashganda yuzaga chiqadi.

Oliy ta'limning 1, 2 va 4 bosqich talabalariga falsafa, tarix, dinshunoslik, madaniyatshunoslik, fuqarolik jamiyati va milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fanlari hamkorligi asosida o'qitilishi ularda bag'rikenglik, tolerantlik, madaniy o'ziga xoslikka ob'yektiv munosabat, madaniyatlararo totuvlik, o'zaro ishonch va hurmat shakllanadi. Nazariy tahlillar va xulosalar asosida yaratilgan mazkur modelda talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish tizimi muxtasar qilib ko'rsatilgan.

Ushbu model asosida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ta'lim texnologiyasi ishlab chiqildi. Bu ta'lim texnologiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar, ya'ni falsafa, tarix, dinshunoslik, madaniyatshunoslik, fuqarolik jamiyati, milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fanlaridan fanlararo hamkorlik asosida yaxlit pedagogik jarayonni va ta'lim berish ketma-ketligi asosida qamrab olindi. Bu pedagogik texnologiya g'oyalar, bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim olishini rejalashtirish, ta'minlash, baholash va boshqarish faoliyatini tashkil etish metodlari va vositalarini o'z ichiga qamrab olgan majmuaviy integrativ jarayon sifatida ko'rsatib berildi. Ishlab chiqilgan model asosida to'rt bosqichli ta'lim texnologiyasi yaratilib, ijtimoiy gumanitar fanlarni pedagogik jarayonda o'tilish ketma ketligi doirasida fanlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish mexanizmiga asos solindi. Oliy ta'lim muassasalarining 1, 2 va 4 kurslari doirasida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'tilish holati, pedagoglarning salohiyati, shuningdek, fanlararo hamkorlikning qay darajada qay darajada yo'lga qo'yilganligining mavjud holati ham tahlil qilinadi. Tajriba-sinov ishlaridan so'ng ishlab chiqilgan texnologiya bo'yicha olib borilgan tizimli mashg'ulotlardan keyingi natijalar tahlil qilindi va oldingi xolat bilan solishtirildi.

Madaniyatlararo to'qnashuvlar (umuman to'qnashuvlar) yuzaga kelish sabablarining ko'lami nihoyatda keng: to'qnashuv asosida nafaqat til bilimining yetarli emasligi hamda suhbatdoshini

## PEDAGOGIKA

tushunmaslik, balki kommunikatsiya qatnashchilarining o'zi ham aniq anglab yetmagan chuqurroq sabablar yotadi. To'qnashuvlarga kommunikatsiya jarayonining faqat buzilish, salbiy tomoni sifatida qarash mumkin emas. Binobarin, ular o'ziga xos ijobiy tomonga ega bo'lishini ham unutmazlik lozim. Ijobiy to'qnashuv nazariyasiga ko'ra, to'qnashuvlar kundalik hayotning ajralmas qismi sifatida tushuniladi va ularning, albatta, buzg'unchi xarakter kasb etishi shart emas.[7:14-15] Umuman, madaniyatlararo to'qnashuvlarni tushunish madaniyat va to'qnashuvning o'zaro aloqada bo'lgani uchun ham alohida ahamiyatga ega. Ya'ni madaniy farqlar to'qnashuvlarni keltirib chiqarar ekan, kishilar bu to'qnashuvlarni bartaraf etish yo'llarini bilishlari lozim.

Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirishning madagogik tizimini mazmundorligini oshirishga e'tibor qaratildi va quyidagi vazifalar amalga oshirildi.


- talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan turli ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar tashkil etildi. Jumladan: madaniyatlararo muloqotga oid baxs-munozaralar rukni tashkil etildi: «XXI asr madaniyatlararo muloqotmi yoki to'qnashuv?» mavzusida baxs-munozara o'tkazildi. Baxs-munozaraning maqsadi talabalarda madaniyatlararo muloqot yoki madaniyatlararo to'qnashuv konsepsiyalarining mazmun-mohiyati, ijtimoiy ahamiyatiga doir xulosalarini shakllantirishdan iborat edi.

- talabalar o'rtasida axloqiy va diniy bag'rikenglik madaniyatini o'stirish orqali ularda o'zga millat, madaniyat, din yoki ishtimoiy kelib chiqishi o'zgacha bo'lgan insonlar bilan muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish.

Yangi madaniyatning insonga bo'lgan qattiq ta'sirini mutaxassislar madaniy shok deb nomlashadi. Madaniy shok – individning o'ziga tanish signallar bo'lmagan yangi muhitda o'zini ma'lum bir muddat noqulay, besaranjom his qilishidir. Olimning fikricha, madaniy shok ham muayyan belgilalar (qo'lni qayta-qayta yuvish, jahldorlik, asabiylashish va h.k.)ni o'zida aks ettirgan kasallikka o'xshaydi. Agarda u to'g'ri yo'l bilan davolansa (ya'ni, muhojir til o'rgansa, do'stlar ortirsa va h.k.), muhojir yangi madaniy muhitga moslashishi va o'zini uyidagidek his qilishi mumkin bo'ladi.[8] Madaniy shok muhojir yoki chet tili o'rganuvchisining ajablanishi, hayratlanishi yoki tili o'rganilayotgan madaniyat omillarini qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. Madaniy shok til o'rganuvchining yangi madaniyatga noto'liq moslashishi yoki bu madaniyat me'yorlarini bilmaligi, tushunmasligidir. Har qanday xorijliklikning o'z boshidan madaniy shok holatini kechirishi tabiiydir. Shuningdek, kishi o'z vatanida ham begona muhitga tushib qolganida madaniy shokka duch kelishi mumkin. Madaniy shok boshqa madaniyat bilan yaqinroq tanishish va yangi dalillarni qiyoslash natijasida o'z madaniyatini unuta borgan sayin barham topa boshlaydi.[7:38] Madaniy shok yuzaga kelishining quyidagi shakllari mavjud:

- psixologik moslashishga intilish oqibatidagi zo'riqish;
- do'stlari, qarindosh-rug'laridan ajralish, o'z yurtidagi kasbi va maqomini yo'qotish hissi;
- yangi madaniyatdagi yolg'izlik hissi;
- madaniyatlardagi farqlardan bezovtalanish;
- vaziyatni boshqara olmaslikdan cho'chish.

Madaniy shokning asosiy sababi madaniyatlar o'rtasidagi farq hisoblanadi. Madaniy shok belgilari turli-tuman: idish-tovoq, o'rin-ko'rpa, kiyim-kechak tozaligi, suv yoki yeguliklar sifati haqida qayg'urishdan tortib uyqusizlik, qo'rquv, asabiylashish kabi organizm funksiyalarining buzilishigacha bo'lishi mumkun. Ular depresiyaga, ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka, hatto joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin.





## PEDAGOGIKA

Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli

Bugungi bizning ta'lim tizimimizda fanlararo hamkorlikni namoyon bo'lmashligi, xatto bir-birini inkor qilish, qarshi fikr va tariflar bilan talabalarda ikkilanishlarni keltirib chiqarmoqda. Bir fan bergan ko'nikmani boshqa fan inkor qiladi. Bunga bir tomondan pedagoglarning bilim saviyasi sayozligi sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan fanlararo hamkorlikni mavjud emasligi va o'zaro tolerant muloqotning yo'qligi asos bo'lmoqda. Aslida diniy bag'rikenglik teran falsafiy bilim va tafakkur hamda diniy bilim uyg'unligida hosil bo'ladi. Shunday ekan, fanlararo hamkorlik asosida, bir birini to'ldirish asnosida pedagogik jarayonni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchi kurs talabalariga o'tiladigan Madaniyatshunoslik fani ham madaniyatlararo munosabatlarning mazmun-mohiyati, madaniy munosabatlarning namoyon bo'lishi tahlil qiladi. Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda madaniyatshunoslik, falsafa va dinshunoslik fanlarining o'zaro hamkorligi orqali madaniy munosabatlar, madaniyatlar to'qnashuvi va madaniy hilma-xilliklarning diniy-falsafiy tahlili yoritib beriladi. Bu esa talabalarda madaniyatlararo muloqotga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Madaniyatlar to'g'risidagi bilim va dunyoqarashining ortib borishi natijasida ularda madaniyatlararo muloqot kompetentligi shakllanadi.

**XULOSA**

Bu orqali jamiyat a'zolarini birlashishga, birdam bo'lishga, yagona g'oya asosida hamnafas bo'lib harakat qilishga chorlaydi. Bitiruvchi kurs talabalariga bu fanlar orqali yuqorida ta'kidlangan fikrlarni singdirish orqali ularda vatanparvarlik, birdamlik va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishga harakat qilinadi. Albatta, ijtimoiy-gumantirar fanlar asosida talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlashga doir alohida mavzu bo'lmashligi mumkin, lekin bu fanlardagi mavzularning o'tilishidagi maqsadlardan biri ham madaniyatlararo samimiy muloqotni yo'lga qo'ygan holda milliy rivojlanishga erishish ekanligini tushuntirish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lganligi bois ularda mazkur kompetentlikka aloqador bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaartilgan samarali texnologiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirishga qaratilgan tizim ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон. 2017, 1-том, -Б.125 .
2. Маслова В.А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. –М., 1999. –С. 123-134.
3. Усманова Ш. Этномаданийстереотипларнинглингвомаданийтаҳлили // Лингвист. Илмиймақолапартўплами. VI. –Тошкент: "Akademnashr", 2015. –Б. 120-121.
4. Madon S., Guyll M. Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University // <http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.brally.replication.pdf>
5. Усмонова Ш. Рихсиева Г. Маданиятлараро мулоқот. Ўқув қўлланма. –Тошкент.: ТошДШИ. 2017. –Б. 69-70.
6. Усмонова Ш. Рихсиева Г. Маданиятлараро мулоқот. Ўқув қўлланма. –Тошкент.: ТошДШИ. 2017. –Б. 78.
7. Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. –С.296.